

1/2025,
yanvar-
fevral
(№ 00075)



OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINING TAHLILI

S.J. Yangiboev

PhD. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: s.yangiboev@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss1/632

Annotatsiya

Maqolada oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi tahlil qilingan. Investitsiyalarga ijtimoiy-iqtisodiy naf keltirishga asoslangan maqsadli qo‘yilmalar va istiqbolda daromad olish bilan bog‘liq operatsiyalarni mujassamlashtiruvchi investitsion jarayon, xamda xarajatlar, jamg‘arish va kapitalni o‘shishini o‘zida mujassamlashtiruvchi kategoriya sifatida ta‘riflar berilgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati agrar sektori investitsion faolligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, investitsiya, investitsion faollik, kafolatlangan o‘shish, investitsiyalarning nisbiy samaradorligi.

ANALYSIS OF THE EFFICIENCY OF ATTRACTING INVESTMENTS IN FOOD AND AGRICULTURE

PhD S.J. Yangiboev

Tashkent State University of Economics

Abstract

The article analyzes the effectiveness of attracting investments in food and agriculture. Investments are defined as an investment process that includes targeted investments based on bringing socio-economic benefits and operations related to future income, as well as a category that includes expenses, savings and capital growth. Also, proposals and recommendations are given to increase the investment activity of the agricultural sector of Kashkadarya region.

Keywords: agriculture, investment, investment activity, guaranteed growth, relative investment efficiency.

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В ПРОДОВОЛЬСТВИЕ И СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО

PhD С.Ж. Янгибоев

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация

В статье анализируется эффективность привлечения инвестиций в продовольствие и сельское хозяйство. Инвестиции определяются как инвестиционный процесс, включающий целевые вложения, основанные на социально-экономических выгодах, и операции, связанные с будущим получением дохода, а также категорию, включающую расходы, сбережения и

прирост капитала. Также были высказаны предложения и рекомендации по повышению инвестиционной активности аграрного сектора Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: сельское хозяйство, инвестиции, инвестиционная активность, гарантированный рост, относительная эффективность инвестиций.

Kirish

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlayapti. Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun yetarli daromad manbaini yaratib berishga qodir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga yetadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat yemaslik natijasida kelib chiqayotir[1].

Agrar sohani yanada rivojlantirish, fermerlar daromadini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish borasida foydalanilmayotgan bir qator imkoniyatlar mavjud. Davlat rahbarining 2018-yil 16-yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni[2] va O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020—2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi[3] shu nuqtai-nazardan dolzarbdir.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush farovonligini ta'minlashda agrar sektorni rivojlantirishga muhim yo'nalishlardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining qo'shimcha investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoji jamiyat rivojlanishining navbatdagi ijtimoiy-iqtisodiy modeli, ya'ni taraqqiyot strategiyasi doirasida boshqaruvning intensiv va innovatsion turlariga o'tish, takror ishlab chiqarishni kengaytirish muammolarini hal etish bilan ham bog'liqdir. Barqaror rivojlanish maqsadlarini asosiylaridan bo'lgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash zaruratidan hududlar qishloq xo'jaligi tarmog'i investitsion faolligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi va tarmog'ining investitsion faoliyati, investitsiyalardan tarmoq rivojlanishida foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy masalalari keng xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va qishloq xo'jaligi tarmog'i taraqqiyotidagi ularning tutgan o'rne bo'yicha ilk qarashlarni fiziokrat F. Kene asarlarida ko'rish mumkin. Uning fikricha, “yerga egalik qilish va xo'jalik yuritish uchun chorva mollari, yerni haydash uskunalari, urug'lik sotib olish kerak. Molxona saroylari qurish, kanallar qazish, trubalar yetqazish, ishchilarni yollash bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish kerak” [4]. F. Kene ushbu fikri orqali xo'jalik yuritish uchun zarur mehnat vositalari va predmetlarini xarid qilish orqali investitsion faoliyatni tashkil qilishni nazarda tutadi.

Klassik iqtisodiy nazariy asoschilaridan biri A. Smit ham ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida investitsiyalarning rolga oid ilmiy qarashlarini tizimlashtirib o'tgan. Qishloq xo'jaligi, sanoat, ichki va tashqi savdoda shakllanadigan investitsilar iqtisodiy tabiatiga to'xtalib, hech bir kapital fermerning kapitaliga nisbatan teng miqdorda unumliroq mehnatni harakatga keltirmaydi- deb ta'kidlaydi[5].

Ushbu jarayonda, A. Smit, tarmoqlar kesimida investitsiyalarni jalb qilishda uning ijtimoiy va iqtisodiy samarasi yuzasidan nisbiy ustunlik qishloq xo‘jaligida ekanligiga urg‘u berib o‘tgan.

Ingliz iqtisodchisi J.M. Keynsning fikricha, agar investitsiyalar amalga oshirilmasa, tadbirkorlarning tushumlari bandlik darajasini oshirishning zaruriy darajadan past bo‘lishini e‘tirof etadi. Shuningdek, investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlaridagi mutlaq zarurligi aholi bandligi darajasi, yalpi talabni saqlab qolish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Uning ta‘kidlashicha, agar investitsiyalar kiritilmasa, tadbirkorlarning daromadlari ularda bandlikni oshirish istagini uyg‘otish uchun zarur bo‘lgan darajadan past bo‘ladi[6].

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi barqaror iqtisodiy o‘shishga investitsiyalar ta‘sirini dialektik bog‘liqligi (shu jumladan qishloq xo‘jaligiga) qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, J. Keyns izdoshlaridan hisoblanuvchi R. Xarrod milliy daromaddagi kapitalning chegaraviy qiymati, jamg‘arish ulushining iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini taqiq qilgan[4]. Natijada, iqtisodiyotni dinamik rivojlanishi doimiy jamg‘arish normasi va kapital sig‘imining barqaror koeffitsiyenti sharoitida kuzatiladi.

E. Domar, S. Kuznets, F. Peru kabi iqtisodchilar o‘z ilmiy asarlarida kapital sig‘imi koeffitsiyentiga e‘tiborni qaratishgan. E. Domar kapital qo‘yilmalar qaytimini tavsiflovchi investitsiyalarni unumdorligi koeffitsiyentini muomalaga kiritgan. Shuningdek, innovatsion rivojlanish raqobatbardoshlikning bosh omili sifatida ichki va tashqi jamg‘armalar hisobiga investitsion faollikni yuksaltirishning pirovard natijasi bo‘lishi investitsiya siyosati samaradorligining mezoni ekanligini ilgari surishgan[4].

Ushbu fikrga xos yondashuvni agrobiznes sohasidagi AQShlik olimlar E.Kasla, M. Bekker, A. Nelsonlar ilgari surishib, ular investitsiyalarni asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlariga qo‘shimcha resurslarni jalb qilish jarayoni sifatida e‘tirof etishadi[4]. Qishloq xo‘jaligida investitsiyalarni 4 asosiy turga turkumlashadi:

ma‘naviy va jismoniy eskirgan asosiy vositalarni yangilashga sarflangan investitsiyalar; xarajatlarni qisqartirish va daromad me‘yorini oshirish maqsadidagi yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash, elektrlashtirishga investitsiyalar;

mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga jalb qilinadigan investitsiyalar; ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi jamg‘armalar.

Zamonaviy iqtisodiy fan investitsiyalarga uning iqtisodiy tabiatini o‘zida mujassamlashtiruvchi turli yondashuvdagi aniqliklarni beradi. Iqtisodchi, K.R. Makkonel[7] investitsiyalarga “... ishlab chiqarish tannarxi va ishlab chiqarish vositalari va tovar moddiy zaxiralarining to‘planishi”; “Ishlab chiqarish vositalari, investitsion tovarlar sifatidagi kapitalning elementi”; “... tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan resurslar” sifatida ta‘rif berib o‘tadi.

Bizga ma‘lumki, mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish darajasining asosiy makroprudensial ko‘rsatkichlaridan biri barqaror iqtisodiy o‘shish hisoblanadi. Chunki barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim moliyaviy omillaridan biri iqtisodiyotda yaratiladigan yalpi qo‘shilgan qiymat hisoblanadi. Yalpi qo‘shilgan qiymat hisobiga shakllanadigan milliy jamg‘arish iqtisodiy rivojlanishga investitsiyalarining ichki moliyaviy manbai hisoblanadi.

Demak, umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, barcha tarmoqlar kabi qishloq xo‘jaligida investitsiyalarning mohiyati va ahamiyatini aniqlashtirishda 2 ta yondashuvni ko‘rish mumkin: birinchisi, asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini maqsadli

shakllantirish bilan bog‘liq xarajat elementi. Ikkinchisi, asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini takror ishlab chiqarish uchun zaruriy resurslar majmuasidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish maqsadida olib borilgan bo‘lib, aniq ustuvor vazifalar belgilab olingan. Maqolani yozishda tahlil va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanib, muammoni ochib berishga harakat qilingan hamda O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda yetakchi tarmoqlardan sanalgan qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar amaliy taxlili yoritilgan. Tadqiqot uchun zarur axborotlar asosan xorijiy adabiyotlar, statistik va me‘yoriy-huquqiy ma‘lumotlar bazasidan olingan. Шунингдек, tadqiqotda ilmiy bilishning ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, guruhlash, taqqoslash singari usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanishi bilan birga ushbu tarmoq istiqbolda mamlakat eksport salohiyatini ta‘minlash va uning global raqobatbardoshligini oshirishda ulkan imkoniyatlarga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu imkoniyatlarni istiqbolda ro‘yobga chiqarish tarmoqdagi ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, kam xarajatli ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan intensiv rivojlanish yo‘lidagi islohotlarni olib borishni taqozo qiladi. Bunda tarmoqqa ichki va tashqi investitsiyalarni keng jalb qilish, investitsiyalarni samarali loyihalarga jalb qilish orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma‘lumki, Respublikamizdagi barcha hududlarining iqtisodiy salohiyati, iqtisodiy rivojlanishning tarmoq tuzilmasi bir-biridan farq qiladi. Demak, istiqboldagi innovatsion rivojlanishni ta‘minlashga yo‘naltirilgan investitsiya siyosatida ham har bir hududdagi mavjud iqtisodiy salohiyat va tarmoqlar nisbatiga asoslangan holdagi selektiv yondashuvdagi investitsiya siyosatini yuritilishi mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanish tendensiyasi uchun muhim hisoblanadi.

1-jadval¹

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsuloti tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

Ko‘rsatkichlar/yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
I. YaHM, jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100
1.1. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	94,4	94,3	94,4	94,3	95,9	94,9	94,2	91,9	96,3
1.2. Mahsulotga sof soliqlar	5,6	5,7	5,6	5,7	4,1	5,1	5,8	8,1	3,7

Masalan, Qashqadaryo viloyati misolida olib qaraydigan bo‘lsak, YaHM tarkibidagi tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati 2012-2020-yillarda 91,9 dan to 96,3 % atrofida tebrangan. Umumiy kontekstda mahsulotga sof soliqlardagi pasayish kuzatilib, 2014-yilda 5,6 % ni, 2022-yilga kelib xatolik tebranishlar tendensiyasida YaHM tarkibida 3,7 %ni tashkil qilgan. Ushbu holat hudud iqtisodiyotida soliqlar va davlat subsidiyalari o‘rtasidagi tafovut

sifatida davlat moliyaviy resurslar fondi ko‘lamining pasayib borayotganligidan ham dalolat beradi.

Ushbu tendensiya bir tomondan hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va unda investitsiyalarni to‘g‘ri, iqtisodiy asoslangan holda joylashtirish bo‘yicha tizimli islohotlarga bog‘liq bo‘lgan.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri respublikaning boshqa hududlariga nisbatan barcha tarmoqlar bo‘yicha ulkan iqtisodiy salohiyatga egaligi hisoblanadi. Xususan, tabiiy geografik joylashuvi nuqtai nazaridan ham ushbu hududda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha katta imkoniyatlar mavjuddir.

Xususan, viloyatda 2014-yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining tarmoqlarda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatdagi ulushi 35,2 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2019-yilda tahlil qilinayotgan davrdagi eng yuqori ko‘rsatkich ya‘ni 44,7 %ni tashkil qilgan. 2022-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 41,9% ni tashkil qilmoqda. YaHMning umumiy o‘sish kontekstida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yalpi qo‘shilgan qiymatning barqaror o‘sishi tarmoqning tahlil qilinayotgan hudud iqtisodiyotidagi ulkan salohiyatga egaligidan dalolat beradi.

Qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishning umumiy istiqbollari iste‘molchilarning investitsion salohiyatiga va investitsiyaning maqsadga muvofiqligi-investitsiya xavfiga bog‘liq. Investitsiya xavfi darajasi investitsiyalar va ularning daromadlarini yo‘qotish ehtimolini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga agrar sohani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mavjud resurslardan unumli foydalanish, yuqori sifatli mahsulotlarni ko‘paytirishda qishloq xo‘jaligida investitsiya faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiya faolligini oshirish bevosita investitsiyalashning fundamental tamoyil hisoblangan va aniq maqsadlarda erishish uchun investitsiya kiritish, maqsadlarini murosaga keltirish, muvofiqlashtirish jalb etilgan investitsiyalarni joriy qiymatini saqlash, loyihani samarali amalga joriy etishni boshqarish tadbirlarini qo‘llash yo‘li bilan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarning faoliyat turlariga ko‘ra investitsion imtiyozlarning fiskal, moliyaviy va boshqa shakllari hajmini ko‘paytirishdan iborat.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi²

Yillar	YaHM, mlrd so‘m	Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so‘m	QX mahsulotlari hajmi, mlrd. so‘m	Xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘m	Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so‘m
2012	6 944,1	4957,5	2753,7	1 136,7	1792,8
2013	8 858,9	5043,6	4235,5	1 525,9	2265,9
2014	10 872,1	6076,4	5442,2	2 003,6	3072,2
2015	12 308,3	6849,4	6368,8	2 642,6	3667,8
2016	14 631,1	7194,7	7689,1	3 391,1	4721,8
2017	17 247,7	8721,9	9089,0	4 058,9	5894,7
2018	20 163,9	9632,2	10863,6	5 137,6	7304,4
2019	21 597,3	10945,9	14360,6	5 859,7	11175,3
2020	26 554,1	14529,5	17206,5	7 064,1	16518,5
2021	32 399,3	20360,1	19933,9	8 800,9	24462,5
2022	36 010,6	14574,8	23726,8	10 109,2	19921,7

Qishloq xo‘jaligida investitsiya faolligini oshirishni tartibga solish masalalari quyidagi tadbirlar orqali amalga oshiriladi:

- qishloq xo‘jaligida kredit va soliq imtiyozlari orqali tarmoqlar, sohalar va alohida xo‘jaliklari kapital mablag‘lar bilan ta‘minlashni rag‘batlantirish;
- qishloq ishlab chiqarish quvvatlarini to‘liq ishga tushirish uchun investitsiya jarayonlarini davlat tomondan qo‘llab-quvvatlash va hokazo.

Agrar sohada investitsiya faolligini oshirishda investitsion imtiyozlarni qo‘llash xususiy va xorijiy investorlarni ushbu jarayonga jalb etish ularning moddiy manfaatdorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmagan holda, tarmoqda ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan yerning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo‘jaligi infratuzilmasini qayta ta‘mirlash va rivojlantirish, yangi agro texnologiyalarni joriy etish, ichki va tashqi investorlarga yaratilgan shart-sharoitlar keskin tafovutlarga yo‘l qo‘ymaslik va berilayotgan imtiyozlar iqtisodiy jarayon ishtirokchilarni to‘liq qanoatlantirmog‘i lozim. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng qishloq xo‘jaligida innovatsion loyihalarga bir qator investitsiyalar faolligiga doir o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

3-jadval

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi tarmog‘i asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarni Respublika bo‘yicha o‘rtacha indeksi³

Hududlar nomi	2018	2019	2020	2021	2022
Respublika bo‘yicha jami	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2,37	1,30	1,69	1,97	1,80
Andijon viloyati	0,47	0,46	0,45	0,41	0,41
Buxoro viloyati	1,58	2,01	2,81	1,35	2,53
Jizzax viloyati	1,72	1,70	1,61	1,71	1,99
Qashqadaryo viloyati	1,38	1,49	1,61	1,38	1,09
Navoiy viloyati	0,37	0,97	0,88	1,90	0,86
Namangan viloyati	1,60	1,67	2,60	1,79	1,74
Samarqand viloyati	0,64	0,62	1,53	1,50	1,46
Surxondaryo viloyati	0,54	0,55	0,64	0,76	0,78
Sirdaryo viloyati	0,97	1,03	0,90	0,87	0,80
Toshkent viloyati	2,11	2,94	1,94	2,03	2,19
Farg‘ona viloyati	1,51	1,46	1,37	1,40	1,40
Xorazm viloyati	0,62	0,55	0,55	0,44	1,47
Toshkent shahri	0,21	0,39	0,29	0,32	0,36
Variatsion kenglik, $R= X_{max}- X_{min}$	2,16	2,55	2,52	1,71	2,17

3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi tarmog‘i asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni Respublika bo‘yicha o‘rtacha darajasini shartli ravishda 1 indeks deb qabul qilsak, o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkich 2022-yilda Buxoro (2,53), Toshkent (2,19), Jizzax (1,99), viloyatlarida kuchli konsentratsiyalashuv kuzatilmoqda.

Variatsion kenglik nuqtai nazaridan 2019-yilda qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga kiritilgan investitsiyalarni aholi jon boshiga ulushi o‘rtasidagi nisbatan kuchli tafovut kuzatilgan. Ushbu tafovut 2022-yilda 2,17 ni tashkil qilgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar tizimlashtirildi:

Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga nisbati ko‘rsatkichi bo‘yicha variatsion kenglikdagi kuchli tafovutning o‘zgarishi asosan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga investitsiyalarni jalb qilishdagi faolligiga bog‘liq bo‘lgan. Avvalo har bir hudud kesimida qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar jalb qilishda mahalliy davlat hokimiyati organlari hududdagi mavjud salohiyatni (qishloq xo‘jaligidagi) inobatga olgan holdagi faollikni yanada oshirish maqsadga muvofiq.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb qilishdagi faollikni oshirishda yuqori qo‘shilgan qiymat zanjiriga asoslangan zamonaviy loyihalarni amalga oshirishga investitsiyalarni jalb qilish maqsadga muvofiq. Chunki, olingan tahlil natijalari tasdiqlaydiki, hudud aholisi jon boshiga qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yaratilgan qo‘shilgan qiymat o‘rtasida kuchli tafovut mavjudligi ishda asoslangan.

Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarni Respublika bo‘yicha o‘rtacha indeksida o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkich kuzatilayotgan bo‘lsa-da, 2019-2020-yillarda dinamik pasayish kuzatilgan. Tahlillar tasdiqladiki, tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilishdagi jon boshiga olingandagi ushbu pasayish mahalliy davlat hokimiyati organlarini investitsion faollik darajasini pasayishi hisobiga kuzatilgan.

Hududlar investitsion faoliyatidagi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi quyidagilarga qaratilishi lozim:

Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb qilishda mintaqalar doirasida agrar ishlab chiqarishning ixtisoslashuv darajasi va holati to‘liq inobatga olinmasa, mikrodarajada bevosita xo‘jaliklarning investitsiya faolligida samaradorlikka erishish qiyin kechadi. Chunki, qishloq xo‘jaligi o‘ziga xosligi, tabiiy-iqtisodiy, joylashuv holati, ixtisoslashuvi va ijtimoiy shart-sharoitlari turlicha ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu nuqtai nazardan Qashqadaryo viloyati boshqa hududlarga nisbatan qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb qilish orqali hududiy iqtisodiy o‘rishni ta‘minlashda ulkan imkoniyatlarga ega.

Biroq qishloq xo‘jaligini raqobatbardosh, shuningdek xususiy sektor, aholi va davlat manfaatlari uchun xizmat qiladigan sohaga aylantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf qilish kerak. Buning uchun quyidagi yo‘nalishdagi islohotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq:

- qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni muvozanatlash lozim;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligini oshirish kerak;
- qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun eksport imkoniyatlaridan maksimal foydalanish kerak;
- qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish uchun byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish kerak;
- fermer xo‘jaliklarining yerga egalik qilish huquqlarini himoya qilish kerak.

Shundan ko‘rinib turibdiki o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotiga taqsimlanayotgan investitsiya samaradorligini oshirish va to‘g‘ri taqsimlash masalalariga ilmiy yondashuvni takomillashtirish tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Xulosa qilish mumkinki, qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tarmoqqa kiritilgan ichki investitsiyalarga nisbatan juda past ko‘rsatkichni tashkil qiladi. Shuningdek, barcha tarmoqlarga jalb qilinayotgan investitsiyalarda qishloq xo‘jaligi

tarmog'iga jalb qilinayotgan investitsiyalar hamon aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning umumiy oqimida nisbatan past ulushni tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligi makro va mikro darajada uzoq muddatli investitsiyalar yetishmasligi natijasida zarar ko'rdi va zarar ko'rishda davom yetmoqda [1] (Jahon banki, 2007). Qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritish dunyodagi eng kambag'allar yashaydigan qishloq joylarida qashshoqlikni kamaytirishning muhim va samarali strategiyasidir [2] (Jahon banki, 2008). Investitsiyalar mahsuldorlikni oshiradi, bozorda oziq-ovqat mavjudligini oshiradi va narxlarni past ushlab turishga yordam beradi, qishloq va shahar iste'molchilari uchun oziq-ovqat arzonroq bo'ladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligiga investitsiyalar oziq-ovqat ta'minotining zarbalarga zaifligini kamaytiradi, iste'mol barqarorligiga yordam beradi.

Xulosa

Zamonaviy sharoitlarda investitsiyalar agrar sektorining nafaqat samarali faoliyat yuritishining asosiy shartlaridan biri, balki uning raqobatbardoshligini oshirish omili, agrar iqtisodiyotni boshqarishning innovatsion turiga o'tishning hayotiy zarur sharti hisoblanadi. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, agrar sektorga investitsiyalar tarmoqdagi ishlab chiqarish omillarni tiklash, modernizatsiyalash va takror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun jami moddiy, pul va mehnat qo'yilmalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni kiritish qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligidan tashqari sohalarda sezilarli miqdordagi ish o'rinlarini yaratish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish orqali qishloq joylarda qashshoqlikni kamaytirishning muhim va eng samarali strategiyasi hisoblanadi. Shunday qilib, yer va suv tanqisligi qisqargan sharoitda qishloq xo'jaligiga investitsiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Investitsiyalar qishloq joylarida tarmoqdagi innovatsion rivojlanishning asosiy omili sifatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish unumdorligini oshirilishini ta'minlash orqali band bo'lgan aholining real daromadi va iste'molini oshirib, global va milliy masshtabda oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilaydi.

Davlat tomonidan qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni rag'batlantirish choralari tarmoqqa investitsiyalarni ko'paytirishning samarali usullaridan biridir. Investitsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatining ko'lami har bir mamlakatning tarmoqqa xos bo'lgan nisbiy afzalliklari va qishloq xo'jaligi salohiyatidan foydalanishi imkoniyatlariga bog'liqdir. Qishloq xo'jaligidagi nisbiy afzalliklar O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish, ular bandligini ta'minlash bilan bir qatorda milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishda ulkan imkoniyatlarga ega tarmoqlardan biridir. Buning uchun qulay investitsiya muhiti va samarali risklarni boshqarish tizimi talab qilinadi.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi tarmog'idagi ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atiga "kapital resurslar" omiliga nisbatan "mehnat resurslari" omilining sezilarli ta'siri kuzatilmoqda. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi tarmog'i ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi va ularga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligining tahlili shuni tasdiqlaydiki, hudud qishloq xo'jaligi tarmog'ini intensiv rivojlantirish va unda kapitaldan foydalanish unumdorligini oshirishga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar tahlili

1. <https://www.fao.org/sustainable-development-goals-data-portal/data/>
2. <https://lex.uz/docs/3506750>
3. <https://lex.uz/docs/4567334>
4. [Блауг М.](#) Кенэ, Франсуа // [100 великих экономистов до Кейнса](#) = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. — СПб.: Экономикс, 2008. — С. 128—130. — 352 с.
5. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — М.: [Эксмо](#), 2007. — 960 с.
6. Keynes J. M. The economic consequences of the peace. — Routledge, 2017.
7. Макконел К. R. Economics: Principles, Problems and Politics. In 2 volumes. Brue: first from English-t. 1 //М.: Republic. — 1992. — Т. 399.
8. Ражабов, Н. 2022. Эркин иқтисодий зоналарда инвестицион муҳит жозибаторлигини бошқариш масалалари хусусида/ Iqtisodiyot va ta’lim. 23, 3 (Jun. 2022), 101–108
9. Мустафақулов Ш.И. Инвестицион муҳит жозибаторлиги: назария, методология ва амалиёт.— Т.:«МАЪНАВИЯТ», 2017. 328-б.
10. Мустафақулов Ш., Ражабов Н., Хайдарова М. Навоий вилоятининг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига инвестицион муҳит жозибаторлиги таъсирининг таҳлили. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 у.
11. Yangiboyev S. Problems of increasing investment activity in the agricultural sector // "online-conferences" platform. — 2022. — С. 187-189.
12. Янгибоев С. Ўзбекистон иқтисодиётини аграр секторга жалб қилинган инвестицияларнинг соҳадаги роли ва аҳамияти //Архив научных исследований. — 2022. — Т. 4. — №. 1.